

**MUSIQIY FOLKLOR, UNING TARIXI VA RIVOJLANISHI.O'ZBEKISTONDA  
FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN XALQ FOLKLOR-ETNOGRAFIK  
ANSAMBLAR**

**Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Musiqi ta’limi” yo’nalishi talabasi*

So’nggi yillarda folklor-etnografik ansambllarning hayot sahnalaridagi ahamiyati oshib bormoqda: ularda eng buyuk insoniy fazilatlarining aks etishi va hozirgi yoshlarga o’rnak bo’lishi mumkin bo’lgan sifatlarning mavjudligi ushbu namunalarning qimmatini yanada oshirib bormoqda. Xususan, o’zbek folklor san’atining quyidagi najmunalari yoshlarimiz hayotida muhim rol o’ynaydi: Namangan viloyatidagi “Bo’ston”, “Yor-yor”, Farg’ona viloyatidagi “Omonyor”, “Chodirjamol”, Andijon viloyatidagi “Bedana”, “Zilol”, Toshkent viloyatidagi “Gulyor”, “To’rg’ay”, “Zarin yaproqlar”, Buxoro viloyatidagi “Nozanin”, “Mohi sitora”, “Afshona”, “Mardona”, “Qasri orifon”, Samarqand viloyatidagi “Chavqi”, “Beshqarsak”, “Sarbozi”, Jizzax viloyatidagi “Gashtak”, “Zeboixon”, “Zomin sayqali”, Xorazm viloyatidagi “Orazibon”, “Xorazm”, “Doston”, Surxondaryo viloyatidagi “Boysun”, “Bulbuli go’yo”, “Zevari”, “Bilakuzuk”, “Quralay” bolalar folklor-etnografik dastasi, Qashqadaryo viloyatidagi “Momogul”, “Hilola”, Navoiy viloyatidagi “Keskan terak”, Sirdaryo viloyatidagi “Sayhun yigitlari”, Toshkent shahridagi “Gavhar”, Qoraqalpovistondagi “Jayhun to’lqini”, “Besperde” ansambllari millatlararo umumqadriyatlar bo’lmish mehr-saxovat, mehr-shafqatni tarbiyalashda, komil insonni voyaga etkazishda ajdodlar merosini avlodlarga etkazishda barakali va xayrli ijod qilib kelmoqdalar.

Ota-bobolarimizdan meros bo’lib qolgan udum va marosimlarni sahnaga olib chiqib, yana ularni zamonaviy talqinda xalqqa qaytarishda folklor san’ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Folklor-etnografik ansambllari xalqimizning urf-odatlarini, e’tiqodini va umuminsoniy qadriyatlarini namoish etib kelmoqda. Folklor-etnografik ansambllari xalq og’zaki ijodiyoti an’analarni tiklash va takomillashtirishda yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e’zozlashga o’z hissasini qo’shmoqdalar. Har bir folklor-etnografik ansambllari mustaqil Respublikamiz turli viloyatlarida faoliyat ko’rsatib, shu xalqning takrorlanmas udumlarini, marosim va rasm-rusmlarini o’ziga xos xususiyatlarini har xil ko’rinishlarda namoyon etmoqdalar.

Xalqimiz mustaqillikka erishganidan so’ng turfa folklor namunalari hamda folklor-etnografik ansambllar ijodini aholiga avval ular qanday yaratilgan bo’lsa xuddi shundayligicha yetkazish imkoni tug’ildi. Ushbu ansambllar xalqimizning qadimiy ijodini bizga tanishtirish bilan bir qatorda Vatanni ardoqlash, sadoqat, mehr-muruvvat singari ulug’ qadriyatlarni xalq ongiga jo qilmoqdalar.

Bundan tashqari ushbu ansambllar va ularning ijod namunalari Vatanimizning qanchalik buyukligini, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini

uqtirib, yoshlarimizga komil inson tushunchasini go'zal misralarda yetkazib berishga harakat qiladilar.

#### “Chavqi” folklor-etnografik ansambli

Ansambl Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida tashkil etildi. “Chavqi”ning ma'nosi shundayki, u to'y-tomoshalarda, tunda “olov-gulxan” atrofida ijro etiladigan xalq udumlari va o'yinlaridan tashkil topadi. Bulung'urliklarda qadimdan “Beshqarsak” o'yinlari bo'lib, tog'li qishloqlarda saqlanib qolgan. Ansamblning badiiy rahbari va tashkilotchisi, Bulung'ur tuman markaziy madaniyat uyi xalq teatrining rejisyori Suvonqul Abduqodirov ko'p yillik izlanishlaridan keyin, nihoyat 1981 yilda folklor jamoani tashkil etadi. “Chavqi” ansamblining boshqa jamoalardan farqi shundaki, ularda cholg'u sozlari ishlatilmaydi. Repertuar musiqasini boshdan-oyoq qarsaklar tashkil etadi. Ansamblga o'sha davrda Chavqi o'yinini ko'rgan, eshitgan, bilgan va o'zlari ishtirok etgan keksalar va yosh talantlar taklif etilgan.

Ushbu ansamblning betakror repertuaridan turli yo'llar bilan, xususan qarsak bilan ijro etiladigan go'zal ijod namunalari joy olgandir. Unda 200 dan ortiq folklor namunalari to'plangan. Ularda insonlarning bir-biriga bo'lgan cheksiz mehri, sevgi, do'stlik singari muqaddas tuyg'ular, Vatan uchun jonini ayamalik o'z yerini sevish singari xislatlar faxr bilan kuylanadi, bir qarashda bir-biriga bog'liq emasdek ko'ringan ushbu namunalar bir-birining mantiqiy davomi, yarmi hisoblanadi. Buning isbotini ushbu ajoyib jamoa ijro etgan bu kabi folklor namunalarida ko'rishimiz mumkin: “Maydayomayda”, “Taralli-ho”, “Aylanamiz yakdona”, “O'ynang yor o'ynang”, “Sangina bola”, “Gulilola”, “Yallama yorim”, “Sening qadring o'tdi”, “Ikkala marjonigday”, “Chamanda gul ochilibdi”, “Yakdona gul”, “Otam ishchi, onam ishchi”, “Sog'indim”.

Ansambl 1986 yili Moskvada o'tkazilgan “O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari” festivalida, 1988 yili avgust oyida Moskvada bo'lib o'tgan “Xalqaro folklor festivali”da ishtirok etdi va shu yili “Xalq ansambli” unvoniga sazovor bo'ldi. 1999 yili Termiz shahrida “Alpomish dostonining ming yilligi” tantanalarida qatnashib, muxlislar ortirdi. 2002 yili Boysun tumanida o'tkazilgan “Boysun bahori” ochiq xalqaro folklor festivalida faxrli o'rin olib YUNESKO xalqaro tashkilotining maxsus sovrini va diplomi bilan taqdirlandi.

Hozirda jamoa “Yil boshi”, “Poda to'p”, “Bozorlik”, “Sumalak” singari repertuarlar ustida ish olib bormoqdalar. Ularni sahnalashtirish ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Yangi-yangi xalq termalari va o'yin usullariga sayqal berib o'z dasturlarini boyitmoqdalar.

#### “Mohi sitora” folklor-etnografik xalq ansambli

Is'tedodli ijodkor Olya Hasanova tomonidan ko'hna Buxoroning betakror madaniyat uylaridan birida tashkil qilingan “Mohi sitora” ansambli ham o'ziga xos janr, uslub va xususiyatlarga egadir. Ko'p yillar davomida ansambl tomonidan tinimsiz olib borilgan shiddatli urinish va harakatlardan so'ng 1988-yilda ushbu jamoaga “Folklor-etnografik xalq ansambli” faxriy unvoni berildi. Ushbu unvon jamoaga olam-olam quvonch hamda shuhrat bilan bir qatorda katta ma'suliyat ham olib keldi. O'zbek xalqimiz ijodi bilan tinimsiz shug'ullangan ulug' olima Tamara Toshboyeva folklorshunos olima Saodat Yo'ldosheva bilan hamkorlikda ushbu ansambl gullab-yashnashi uchun o'z hissalarini qo'shishga harakat qildilar. Ular o'zlaridagi bebaho nazariy bilimlar xazinasini, olib borilgan amaliy mashg'ulotlar natijasida bunga erishdilar. Turli yosh, imkoniyat, iste'dod hamda kuch

egalari bo'lgan jamoa a'zolari ansamblning yuksaklarga ko'tarilishi uchun qunt bilan mehnat qildilar. Olya Hasanova badiiy rahbarligi ortidan qilingan sa'y-harakatlar natijasida ansambl "Mohi sitora" "Mavrigixonlik"ni qayta tiklab, rivojlantirdi. Buxoroliklar orasida nachagina mashhur bo'lgan "Shavod", "Sarxona", "Miyonxona", "Gardon", "Chorzarb" singari milliy termalarni o'z ichiga olgan ulkan turkumni birlashtirdilar. Ushbu "Mavrigi" turkumi buxoroliklar o'rtasida shuhrat qozongan yetuk folklor-ansambli hisoblanadi.

1988 yilda ansambl Moskvada o'tkazilgan "Xalqaro folklor festivali" da muvoffaqiyatli ishtirok etdi. Buxoroga kelgan turli chet el delegatsiyalari, mehmonlar "Mohi sitora" konsert dasturini chetlab o'tmagan. Ansambl dasturini tomosha qilgan Hindistonning mashhur kino yulduzi Raj Kapur ham "Mohi sitora"ning ijro mahoratiga yuksak baho bergan. "Mohi sitora" folklor-etnografik ansambli dasturidan joy olgan: "Mohi Buxoro", "Nog'ora", "Qayroq", "Zang", "Ushtur bacha mond", "Yor omad", "Uf, dilam", "Chor zarb", "Orzu", "Shart", "Miyonxoni", "Chashmohi siyoh", "Murg'ak", "Gula burdon ba chaman", "Jon Hasanjon", "Ba shahri Buxoro", "Dar bog' anjir ast", "Ko'zlarim senda mudom", "Yoratmanyoratman", "Buxoro hazil qo'shiqlari", "Begimjon", "Mahvashi nozik badanash orzu", "Ne-ne dilakam bobo", "Zebak", "Jamalagi tillo qizgina", "Sumalak" kabi qo'shiqlarni tinglash va ijro usullarini tomosha qilish kishiga olam-olam zavq va quvonch bag'ishlaydi. Olyaxon Hasanova o'z ansambli dasturida Buxoroning o'ziga xos raqslarini, udum va marosimlarini kiritgan. Masalan, "Kelin salom", "Kuyov salom", "Xinobandon", beshik to'yi, muchal to'yi marosimlarini jamoa tomonidan mahorat bilan ijro etganligi ko'pchilikda yaxshi taassurot qoldirgan. Ulardagi ijro uslubining qadimiyligi, badiiy talqini har qanday tomoshabinni sehrlab, g'ayratga soladi. Buxoroning milliy urf-odat, an'alarini, marosim va udumlarini hayotga tadbiiq etish, yaxlitligini saqlab qolishda "Mohi sitora" folklor-etnografik ansambli xayrli ishlarni amalga oshirdi.

Ushbu ajoyib xalq folklor-etnografik ansamblning boshqalaridan ajratib turadigan o'ziga xos farqlari bisyordir: uning musiqiy repertuarida o'zbekcha kuy-qo'shiqlar bilan bir qatorda tojikcha qo'shiq hamda raqslar ham ansamblni o'zgacha bezab turadi. Aynan ana shundan "Mohi Setora" ansambli qo'shiq, raqs, milliylik borasida dunyoda tengi yo'q ansambllardan biridir.. Ansamblning repertuaridagi ushbu betakror qo'shiqlar xalq orasida ommalashgandir: "Yor omadi", "Chor zarb", "Murg'akam", "Gula burdam da giram", "Yorakam dar xob bedor ast", "Jon modaram", "Yallo, yallo, yallo", "Oromijon biyo", "Gardon", "Ayladi", "Ey nozanin", "Hasanjon", "Rafti nagufti"

"Mohi Setora" folklor-etnografik ansambli 1990-1992-yillar oralig'ida o'tkazilgan "To'y-marosim qo'shiqlari ijrochilari" ko'rik tanlovida faxrli birinchi o'rinni olib, birinchi darajali diplom va esdalik sovg'alariga ega bo'lganlar. Ansambl O'zbekiston, O'rta Osiyo sahnalari bilan cheklanib qolmasdan, 2000-yillarda Fransiya va Germaniya sahnalarini ham bezashga muvaffaq bo'lganlar.

Buyuk ansamblning badiiy rahbari hisoblanmish Olyaxon Hasanopvaning harakatlari va urinishlari hisobga olinib, u 1992-yilda faxriy "O'zbekistonda xiuzmat ko'rsatgan artist" unvoni bilan taqdirlandi.

"Bulbuligo'yo" folklor-etnografik xalq ansambli

Mashhur “Bulbulgo’yo” xalq etnografik ansambli 1982-yil Surxondaryo tumani Sho’rchi tyumanidagi nufuzli madaniyat uyi qoshida tashkil topgan. Ansamblning ijodiy faoliyati, uning katta sahnalarga chiqishida buyuk ijodkor Rahmatulla Rahimovning o’rni katta bo’ldi. O’zining yigirma besh yillik faoliyati davomida ushbu ansambl xalqimiz tomonidan deyarli unutilgan udum va an’analarni, ularni tarannum etuvchi betakror qo’shiqlarni o’z ijod namunalari aks ettirdi.

Ansambl Respublika va undan tashqarida bo’lib o’tgan ko’rik-bellashuvlari, festivallarda ishtirok etib, nufuzli o’rinlarni qo’lga kiritdi. O’tgan yillar mobaynida “Navro’z”, “Mustaqillik” bayramlarida, 1997 yil “Toshkent XII-xalqaro kinofestivali” ochilishi hamda, 1998 yili Turkiyada o’tgan festivalda, “Al Farg’oni” tavalludining 1200 yillik” tadbirida, “Buxoro shahrining 2500 yilligi”ga, “Alpomish dostoni yaratilganligining 1000 yilligi”, “Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi” va boshqa bir qator tadbirlarda ajoyib dasturlarni namoish etib, el olqishlariga sazovor bo’ldi.

Ansambl Respublikamiz sahnalarida faol ishtirok etdi. O’z navbatida, Tojikistonda o’tkazilgan “Sadoyi dilbo” hamda 2002-2005-yillarda tashkil etilgan “Boysun bahori” xalqaro ochiq festivalida muvaffaqiyat ila ishtirok etdilar. Respublikamizda 2006-yilning noyabr oyida o’tkazilgan “Barhayot navolar” Respublika amaliy bellashuvda ham faol ishtirok etishdi va, yabiiyki faxrli birinchi o’rinni qo’lga kiritishdi.

“Bulbuligo’yo” ansamblning yuksak natijalarga erishishida Xayrulla To’raqulov, Muzaffar Bo’riev, Soatmo’min Aliqulov, Nabi Bahromov, xonandalar- Rustam Usmonov, Muhammadi Shoymardonov, Baxtiyor Boboxonov, Muqaddas Sattorova, Gulchehra Turdieva, Zilola Xolmo’minova, raqqosalar – Rayxona Raximova, Lobar Jumaeva, Nigora Tursunova, laparchilar – Hayitgul Soatova, Qizlarsora Safarova, Halima Qurbonova, Atirgul Qudratova, raqqoslardan – Abduraxmon Raximov, O’ktam Shoymardonov, Turg’un Muhammadiev, Suxrob Abrayqulov va boshqalar katta jonbozlik ko’rsatdilar.

Uzoq yillar qilingan harakatlar besamar ketmadi: har biri munosib taqdirlandi. Ansambl rahbari hamda tashkilotchisi Rahmatulla Mo’minovga davlat tomonidan “O’zbekiston xalq maorifi a’lochisi” unvoni berildi. Bundan tashqari olib borilgan fidokorona ishlar tufayli “Fidokorona mehnatlari uchun” ordeniga ham ega bo’ldi. Ansamblning faxri hisoblangan Yoshi ulug’ ijrochilar: Mengqobil bobo Ismoilov, iste’dodli baxshi-do’mbirachi Abduhamid Yangiboyevlar hukumat tomonidan nufuzli “Shuhrat” medali bilan taqdirlandilar.

Ushbu milliy ansamblarni o’rganish, tarix-u bugunini tahlil qilish, namunalarini to’plash va asrab-avaylash, ularning keng ommaga tarqalishini targ’ib qilish hamda ta’minlash har bir milliy o’zligini anglagan insonning faxriy burchi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Abdurasulov A. O’zbek xalq qo’shiqlari tarixi, mazmuni hamda ijtimoiy-pedagogik ahamiyati (Educational Research in Universal Sciences). – Toshkent. 2024,
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O’zbek musiqa tarixi. T.:2018 y.
3. Baxriyev A, Yulldoshev U. Bolalar musiqa adabiyoti. O’quv qo’llanma. – Toshkent. 2018.
4. Ibrohimov O. O’zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent. Metodik tavsiyalar, 1994.

5. Introduction to Folklore. London, 2008.
6. Jarashbayev N. O'zbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotdagi o'rni. – Toshkent. 2021.
7. Jo'rayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017.
8. <https://fayllar.org>
9. <https://portal.guldu.uz>